MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON EKOLOGIYA TUZILMALARI FAOLIYATIGA DOIR NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Nuraliyev Qahramonjon Bayozbek o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
nuraliyevqahramon945@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-6718-7842

Annotatsiya:
Ushbu tezisda mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiatni muhofaza qilish tuzilmalarining huquqiy asoslarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda sohaga oid qabul qilingan muhim qonunlar, farmonlar va kodekslarning ekologik tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirishdagi amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar*: Ekologiya, normativ-huquqiy hujjatlar, Davlat ekologiya qo‘mitasi, Ekologik partiya, qonunchilik, barqaror rivojlanish, Konstitutsiya.*

KIRISH

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlash, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga ayland.[1]. Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishlari sharoitida mamlakatda faoliyat yuritayotgan ekologiya tuzilmalarining huquqiy maqomini mustahkamlash va ularning qonunchilik bazasini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [3].

ASOSIY QISM

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — mustaqillik yillarida mamlakatimizda ekologiya tuzilmalari (vazirlik, qo‘mita va jamoat tashkilotlari) faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimini o‘rganish va ularning amaliy samaradorligini baholashdan iborat [2]. Mazkur maqsadga erishish uchun ishda qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimlilik, xronologik yondashuv va qonun hujjatlarini sharhlash usullaridan foydalanildi.Olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik qonunchilik va u orqali tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish o‘ziga xos evolyutsion bosqichlarni bosib o‘tgan:

1. Konstitutsiyaviy asoslar: Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga egaligi hamda davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish bo‘yicha choralarni ko‘rishi qat'iy belgilab qo‘yildi. Bu soha tuzilmalari uchun bosh huquqiy poydevordir.
2. Qonunchilik bazasining yaratilishi: Mustaqillik yillarida “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1992-y), “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (1996-y), “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi (2000-y) hamda “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi

(2013-y) qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlar tizimi ekologiya sohasidagi vakolatli organlarning huquqiy maqomi va majburiyatlarini aniqlashtirib berdi [5].

3. Tuzilmaviy islohotlar: Ekologiya tuzilmalarining faoliyatini zamon talablariga moslashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hal qiluvchi rol o‘ynadi. Xususan, sobiq Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Davlat ekologiya qo‘mitasiga, keyinchalik esa Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi etib qayta tashkil etilishi sohadagi davlat nazorati funksiyasini tubdan yangiladi [4].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ekologiya tuzilmalariga nafaqat nazorat funksiyasini, balki ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish, sanoat korxonalarida majburiy ekologik ekspertiza tizimini joriy etish va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish imkonini berdi [2],[5].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ekologiya tuzilmalari faoliyatini tartibga soluvchi mustahkam, bosqichma-bosqich rivojlanib borgan va yaxlit normativ-huquqiy baza shakllantirildi. Olib borilgan tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, oddiy qo‘mita va inspeksiyalardan to‘laqonli Vazirlik darajasigacha bo‘lgan institutsional evolyutsiya bevosita normativ-huquqiy hujjatlarning takomillashib borishi bilan ta'minlandi. Qabul qilingan qonunlar ekologiya tuzilmalariga nafaqat davlat nazoratini olib borish, balki yirik sanoat obyektlariga nisbatan majburiy ekologik ekspertiza talablarini qo‘yish hamda ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash imkonini berdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ekologik huquq va majburiyatlarning qat'iy belgilanishi esa soha tuzilmalarining jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlari bilan munosabatlarida bosh huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi global iqlim o‘zgarishlari va ekologik inqirozlar sharoitida tarqoq holdagi qonun hujjatlarini yanada tizimlashtirish zarurati mavjud. Shu bois, sohadagi barcha normalarni unifikatsiya qiluvchi yagona Ekologiya kodeksining qabul qilinishi va unda ekologiya tuzilmalarining raqamli texnologiyalar yordamida nazorat olib borish vakolatlarini aniq belgilash kelgusida atrof-muhit musaffoligini saqlash samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILAN ADABIYOTLAR:

1. Alixonov B. O‘zbekistonda ekologik siyosat va barqaror rivojlanish muammolari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 180 b.
2. To‘xtayev S. Ekologik huquq: Darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar pub, 2021. – 240 b.
3. Nigmatov A. Ekologik qonunchilik — barqarorlik omili // *Xalq so‘zi* gazetasi, 2024-yil 15-may, № 98 (8721).
4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy sayti: www.eco.gov.uz (Murojaat qilingan sana: 05.06.2026).
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 52-son.